2	**Tasniflash**	14, 21, 36, 45, 50, 63, 72, 87 sonlarini ikki guruhga ajrating va asosini yozing.	Juft {14, 36, 50, 72} va toq {21, 45, 63, 87}; yoki 9 ga karrali {36, 45, 63, 72} va qolganlari. Asosi ko‘rsatilgan har qanday to‘g‘ri tasnif qabul qilinadi.
3	**Umumlashtirish**	Hisoblang: 1 + 3; 3 + 5; 5 + 7; 7 + 9. Ikki qo‘shni toq son yig‘indisi haqida xulosa chiqaring, o‘z misolingizda tekshiring.	4, 8, 12, 16: yig‘indi doimo juft (yuqori daraja: 4 ga karrali, masalan, 11 + 13 = 2 · 12).
4	**Analogiya**	a) 12 → 6, 20 → 10, 34 → ?; b) millimetr : santimetr = santimetr : ?	a) 17 (har bir son 2 ga bo‘linmoqda); b) detsimetr (10 mm = 1 sm kabi, 10 sm = 1 dm).
5	**Deduktiv xulosa**	a) Barcha kvadratlarning tomonlari teng; ABCD – kvadrat. Uning tomonlari haqida nima deyish mumkin? b) Kvadratlarning burchaklari to‘g‘ri; MNPKning ham burchaklari to‘g‘ri. U albatta kvadratmi?	a) Barcha tomonlari teng. b) Shart emas: tomonlari 2 sm va 5 sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak – qarshi misol.

Har bir topshiriq 0–2 ball bilan baholanadi: 0 – javob noto‘g‘ri yoki yo‘q; 1 – to‘g‘ri, ammo asoslanmagan yoki qisman asoslangan; 2 – to‘g‘ri va to‘liq asoslangan. Umumiy ball bo‘yicha 8–10 ball yuqori, 5–7 ball o‘rta, 0–4 ball past darajani bildiradi. Mezon javobning to‘g‘riligi bilan birga asoslanganligini ham hisobga oladi va TIMSS konsepsiyasidagi “asoslash” talabiga mos keladi [14].

Interfaol metodlar tizimi

Metodlar quyidagi tamoyillar asosida tanlandi: har bir metod aniq mantiqiy amalga yo‘naltiriladi; javob asoslash bilan talab qilinadi (“javob + chunki...”); faoliyat individual fikrlashdan juftlik va jamoaviy muhokamaga qarab boradi; topshiriqlar darslik mazmuni asosida tuziladi va formativ baholash bilan uyg‘unlashtiriladi (2-jadval).

2-jadval: **Interfaol metodlar va ular rivojlantiradigan mantiqiy amallar**

№	Interfaol metod	Asosiy mantiqiy amal	Matematik mazmun (namuna)	Sinf	Ish shakli, vaqt
1	**“Qaysi biri ortiqcha?”** [9]	Taqqoslash, tasniflash, asoslash	Sonlar xossalari, geometrik figuralar	1–4	Juftlik → jamoa; 5–7 daq.
2	**Venn diagrammasi**	Ikki belgi bo‘yicha tasniflash; “va”, “yoki”, “emas”	Juft/toq, karrali sonlar; to‘plamlar	2–4	Kichik guruh; 10 daq.
3	**“Qonuniyatni top”, “Sehrli mashina”**	Qonuniyatni aniqlash, umumlashtirish, gipotezani tekshirish	Sonli ketma-ketliklar, funksional bog‘liqlik	1–4	Juftlik → jamoa; 7–10 daq.
4	**“Har doim – ba’zan – hech qachon”**	Deduktiv mulohaza, qarshi misol keltirish	Amallar xossalari, figuralar, perimetr va yuz	2–4	Kichik guruh; 10–12 daq.
5	**“Mantiqiy jadval”**	Deduktiv xulosa, istisno qilish, seriatsiya	Mantiqiy masalalar	2–4	Juftlik; 8–10 daq.
6	**“Savollar zanjiri”**	Tahlil va sintez	Tarkibli matnli masalalar	2–4	Juftlik; 10 daq.

№	Interfaol metod	Asosiy mantiqiy amal	Matematik mazmun (namuna)	Sinf	Ish shakli, vaqt
7	**“Xatoni top” (“Kim haq?”)**	Tanqidiy tahlil, tekshirish	Hisoblash algoritmlari, bilvosita shakldagi masalalar	1–4	Juftlik; 5–8 daq.
8	**“O‘yla – juftlikda muhokama qil – bayon et”, “Galereya sayri”**	Yechim usullarini taqqoslash, umumlashtirish	Matnli masalalar, og‘zaki hisoblash	2–4	Individual → juftlik → guruh; 15–20 daq.
9	**“Keys” (hayotiy vaziyat)**	Modellashtirish, natijani talqin qilish	Qoldiqli bo‘lish; narx, miqdor, qiymat	3–4	Kichik guruh; 15 daq.
10	**“Masala tuz”**	Sintez, konkretlashtirish, teskari bog‘lanishlar	To‘g‘ri va teskari masalalar, ifodaga ko‘ra masala	1–4	Juftlik; 7–10 daq.
11	**“Arra” (Jigsaw)**	Tahlil, umumlashtirish, o‘zaro o‘rgatish	Masala turlari (farqli va karrali taqqoslash, narx–miqdor–qiymat)	3–4	“Ekspert” va “asosiy” guruhlar; 20–25 daq.

Metodlar to‘rt bosqichli dars sikli doirasida qo‘llaniladi:

1) muammoli vaziyat – ko‘pincha kognitiv ziddiyatga asoslangan topshiriq;
2) individual fikrlash (1–3 daqiqa) – kuchli o‘quvchilarning guruhdagi “monopoliya”sining oldini oladi;
3) juftlik yoki guruhda asoslash – yechim muloqot qoidalari asosida himoya qilinadi;
4) jamoaviy umumlashtirish va refleksiya – o‘qituvchi M. S. Smith va M. K. Stein amaliyotlariga tayanadi: javoblarni oldindan ko‘ra bilish, kuzatish, muhokama uchun yechimlarni tanlash, ularni ketma-ketlikka solish va asosiy matematik g‘oya bilan bog‘lash [20].

Muhokama uchun o‘quvchilar bilan birgalikda muloqot qoidalari ishlab chiqiladi (“Fikringni ayt va savol ber”, “Fikrning sababini so‘ra”, “Bir-biringni tingla”) [13].

O‘qituvchi javobni qayta ifodalash, takrorlatish, munosabat bildirishga undash va o‘ylash uchun vaqt berish kabi “muloqot harakatlari”dan [8], o‘quvchilar esa “Men ... deb o‘ylayman, chunki ...”, “Agar ..., u holda ...”, “Qarshi misol: ...” kabi nutqiy qoliplardan foydalanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mantiqiy amallarni rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi

“Qaysi biri ortiqcha?” (2–3-sinflar; taqqoslash, tasniflash, asoslash)

Topshiriq. 8, 27, 30, 44 sonlaridan qaysi biri ortiqcha? Javobingizni asoslang.

Yechim va mulohaza. Tanlangan asosga qarab har bir son “ortiqcha” bo‘lishi mumkin: 8 – yagona bir xonali son, 27 – yagona toq son, 30 – yagona yaxlit o‘nlik, 44 – raqamlari bir xil bo‘lgan yagona son. An’anaviy “Ortiqchasini top”dan farqli o‘laroq, yagona to‘g‘ri javob yo‘q: qiymat tasniflash asosini ongli tanlash va uni so‘z bilan ifodalashda. Metodni C. Danielson geometrik figuralar misolida ommalashtirgan [9]. Ish tartibi: 1 daqiqa individual o‘ylash, 2 daqiqa juftlikda muhokama, so‘ngra jamoaviy tahlil (“Qaysi belgiga asoslanding?”, “Boshqa belgi tanlasang-chi?”).

Venn diagrammasi (3-sinf; tasniflash, mantiqiy bog‘lovchilar)

1-topshiriq. **1 dan 20 gacha bo‘lgan sonlarni Venn diagrammasiga joylashtiring: A – juft sonlar, B – 3 ga karrali sonlar.**

Yechim. Umumiy qism: 6, 12, 18; faqat A: 2, 4, 8, 10, 14, 16, 20; faqat B: 3, 9, 15; diagrammadan tashqarida: 1, 5, 7, 11, 13, 17, 19. O‘quvchilar umumiy qismdagi sonlar 6 ga karrali ekanini payqab, gipoteza ilgari suradi, uni 24, 30, 36 sonlarida tekshiradi va $6 = 2 \cdot 3$ ga tayanib asoslaydi. “Juft yoki 3 ga karrali sonlar nechta?” savoli “yoki” bog‘lovchisi umumiy qismni ham qamrab olishini ko‘rsatadi ($7 + 3 + 3 = 13$).

2-topshiriq (kognitiv ziddiyat). **Sinfdagi 25 o‘quvchidan 15 nafari shaxmat, 12 nafari suzish to‘garagiga, 4 nafari esa ikkalasiga ham qatnashadi. Nechta o‘quvchi hech qaysi to‘garakka qatnashmaydi?**

Yechim. $15 + 12 = 27 > 25$ degan ziddiyat 4 o‘quvchi ikki marta sanalganini ko‘rsatadi. Venn diagrammasi bo‘yicha faqat shaxmatga $15 - 4 = 11$, faqat suzishga $12 - 4 = 8$ o‘quvchi qatnashadi; kamida bitta to‘garakka $11 + 8 + 4 = 23$ o‘quvchi qatnashgani uchun $25 - 23 = 2$ nafari hech qaysisiga qatnashmaydi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

"Qonuniyatni top" va "Sehrli mashina" (3–4-sinflar; umumlashtirish)

Topshiriq. **Cho'plardan qatorasiga kvadratlar tuzilmoqda: 1, 2 va 3 ta kvadrat uchun mos ravishda 4, 7 va 10 ta cho'p kerak bo'ldi. a) 10 ta kvadrat uchun nechta cho'p kerak? b) 25 ta cho'p bilan nechta kvadrat tuzish mumkin? d) 50 ta cho'pning barchasini ishlatish mumkinmi?**

Yechim va mulohaza. O'quvchilar tuzilmani turlicha "ko'radi": $4 + 3 \cdot 9 = 31$ (birinchi kvadrat va keyingi 9 tasi), $1 + 3 \cdot 10 = 31$ (boshlang'ich cho'p va har kvadratga 3 tadan), $10 + 10 + 11 = 31$ (gorizontal va tik cho'plar). Qarashlarni taqqoslash umumiy qoidaga olib keladi: cho'plar soni = kvadratlar soni · 3 + 1 (algebraik tafakkurning ilk ko'rinishi). b) $(25 - 1) : 3 = 8$. d) 49 soni 3 ga bo'linmaydi, demak, mumkin emas – javob hisoblashga emas, asoslashga tayanadi. "Sehrli mashina"da ($3 \rightarrow 7$, $5 \rightarrow 11$, $8 \rightarrow 17$) "4 ni qo'shadi" gipotezasi $5 + 4 \neq 11$ bo'lgani uchun rad etiladi va "2 ga ko'paytirib, 1 ni qo'sh" qoidasi topiladi: gipoteza barcha ma'lumotlarda tekshiriladi.

"Har doim – ba'zan – hech qachon" (2–4-sinflar; qarshi misol)

Guruhlar mulohazalar yozilgan kartochkalarni uch ustunga joylashtiradi va tanlovini asoslaydi (3-jadval).

3-jadval: **"Har doim – ba'zan – hech qachon" metodi uchun mulohazalar**

Mulohaza	Javob	Asoslash
Ikki juft sonning yig'indisi juft son bo'ladi.	Har doim	Juft son juftliklardan iborat; juftliklar qo'shilganda yana juftliklar hosil bo'ladi (kubiklar modeli).
Ikki toq sonning yig'indisi toq son bo'ladi.	Hech qachon	Toq sonlardagi bittadan "juftsiz" element birlashib juftlik hosil qiladi: 3 + 5 = 8, 7 + 9 = 16.
Ko'paytma har bir ko'paytuvchidan katta bo'ladi.	Ba'zan	3 · 4 = 12 – to'g'ri; ammo 1 · 6 = 6 va 0 · 5 = 0 – qarshi misollar.
Kvadrat to'g'ri to'rtburchak bo'ladi.	Har doim	Kvadratning to'rtala burchagi to'g'ri.
To'g'ri to'rtburchak kvadrat bo'ladi.	Ba'zan	Faqat barcha tomonlari teng bo'lsa.
Perimetri katta to'g'ri to'rtburchakning yuzi ham katta bo'ladi (4-sinf).	Ba'zan	1 × 9 sm (P = 20, S = 9) va 4 × 4 sm (P = 16, S = 16); ammo 5 × 5 sm (P = 20, S = 25) uchun ikkalasi ham katta.

O'quvchilar umumiy tasdiqni rad etishga bitta qarshi misol yetarli, bir necha tasdiqlovchi misol esa uni isbotlamasligini anglaydi – bu deduktiv madaniyatning poydevori.

"Mantiqiy jadval" (2–4-sinflar; deduktiv xulosa, istisno qilish)


Topshiriq. **Laylo, Malika va Nodira qizil, ko'k va yashil qalamlarda rasm chizishdi (har biri bitta rangda). Laylo qizil qalamdan, Malika esa ko'k va qizil qalamlardan foydalanmadi. Kim qaysi qalamdan foydalangan?**

Yechim. Shartlar jadvalga "–" belgisi bilan kiritilib, istisno qilish yo'li bilan xulosa chiqariladi: Malika – yashil, Laylo – ko'k, Nodira – qizil. Shartlardan biri qolganlaridan kelib chiqadigan masalalarda ortiqcha ma'lumotni aniqlash esa ma'lumotlarni tanqidiy saralash ko'nikmasini rivojlantiradi.

"Savollar zanjiri" (3-sinf; tahlil va sintez)

Topshiriq. **Birinchi kuni 45 kg olma terildi, ikkinchi kuni undan 18 kg kam. Barcha olma 9 kg dan yashiklarga joylandi. Nechta yashik kerak bo'ldi?**

Tahlil juftlikda savol-javob shaklida o'tkaziladi: "Savolga javob berish uchun nimani bilish kerak?" – jami massani (bir yashikka 9 kg); "Jami massani qanday topamiz?" – ikki kun hosilini qo'shib; "Ikkinchi kungisini-chi?" – 45 dan 18 ni ayirib. Natija tahlil daraxtida ifodalanadi (1-rasm).



1-rasm: **Masalaning tahlil daraxti (so'roq belgisi – noma'lum kattalik)**

Sintez: 45 − 18 = 27 (kg); 45 + 27 = 72 (kg); 72 : 9 = 8 (ta). Javob: 8 ta yashik. Tahlil bosqichma-bosqich, ovoz chiqarib bajarilgani uchun o‘quvchi oraliq natijada (27 : 9 = 3) to‘xtab qolmaydi va ma’lumotlarni e’tibordan chetda qoldirmaydi.

“Xatoni top” (“Kim haq?”) (2–3-sinflar; tanqidiy tahlil)

Topshiriq. **Olim va Zarina 52 − 17 ni hisoblashdi: Olimning javobi – 45, Zarinaniki – 35. Kim haq?**

Yechim. Teskari amal bilan tekshiramiz: 35 + 17 = 52, 45 + 17 = 62 ≠ 52. Olim o‘nlikni maydalamasdan, 7 − 2 = 5 ni hisoblagan; to‘g‘risi: 12 − 7 = 5, 4 − 1 = 3, ya’ni 35. Xatoni birgalikda tahlil qilish o‘quvchini algoritmning har bir qadamini asoslashga majbur qiladi. Bilvosita shakldagi masalalarda ham (“Azizda 15 ta marka bor, bu Bekzoddagidan 4 ta ko‘p”) “ko‘p” so‘ziga qarab 15 + 4 = 19 deb yechilgan xato kesmalar modeli bilan tahlil qilinib (15 − 4 = 11), “kalit so‘z” strategiyasining cheklanganligi ko‘rsatiladi.

“O‘yla – juftlikda muhokama qil – bayon et” va “Galereya sayri” (3-sinf)

Topshiriq. **Bog‘ga 4 qator olma (har qatorda 6 tadan) va 4 qator nok ko‘chati (har qatorda 3 tadan) ekildi. Jami nechta ko‘chat ekilgan? Masalani ikki usulda yeching.**

Yechim. 6 · 4 + 3 · 4 = 36 (ta) va (6 + 3) · 4 = 36 (ta). Juftliklar yechimlarini plakatlarda taqdim etadi, guruhlar “galereya” bo‘ylab aylanib izoh qoldiradi; o‘qituvchi usullarni bog‘lab, o‘quvchilarni (a + b) · c = a · c + b · c qoidasini ta’riflashga olib keladi. Yechimlarni yonma-yon taqqoslash protsessual moslashuvchanlikni oshiradi [18].

“Keys” (3–4-sinflar; modellashtirish, natijani talqin qilish)

Topshiriq. **Ekskursiyaga 28 o‘quvchi va 3 o‘qituvchi boradi, mikroavtobusda 12 ta o‘rindiq bor. Nechta mikroavtobus kerak?**

Yechim. 31 : 12 = 2 (qoldiq 7); “2 ta” javobi noto‘g‘ri – 7 kishi o‘rinsiz qoladi, demak, 3 ta kerak: natija vaziyat mazmuniga ko‘ra talqin qilinadi. “A do‘konda 3 ta daftar 12 000 so‘m, B da 5 tasi 18 000 so‘m” kabi keyslarda “Arzonroq variant har doim foydalimi?” savoli shartlarni har tomonlama tahlil qilishga undaydi.

“Masala tuz” (1–3-sinflar; sintez, konkretlashtirish)

Topshiriq. **“Savatda 8 ta olma va 5 ta nok bor. Jami nechta meva bor?” masalasiga ikkita teskari masala tuzing (13 − 8 = 5; 13 − 5 = 8).**

Uchala masala qism va butun bog‘lanishini ochuvchi “masalalar oilasi”dir. 20 − 20 : 4 ifodasiga masala tuzish (“20 ta sharning to‘rtdan biri yorildi. Nechta shar qoldi?”) esa sintez va konkretlashtirishni rivojlantiradi.

Namunaviy dars fragmenti

Tizim 3-sinfda “Yig‘indini songa ko‘paytirish” mavzusidagi dars misolida ko‘rsatiladi (4-jadval): ta’limiy maqsad – taqsimot xossasini o‘zlashtirish, rivojlantiruvchi maqsad – usullarni taqqoslash, umumlashtirish va asoslash (4-jadval).

4-jadval: **“Yig‘indini songa ko‘paytirish” mavzusidagi dars tuzilmasi (3-sinf)**

Bosqich	Vaqt	Metod	O‘quvchilar faoliyati	Rivojlanadigan mantiqiy amal
1. Motivatsiya	5 daq.	“Qaysi biri ortiqcha?”	Juftlikda asos tanlash va uni asoslash	Taqqoslash, tasniflash
2. Muammoli vaziyat	8 daq.	“O‘yla – juftlikda muhokama qil – bayon et”	Bog‘ masalasini mustaqil, so‘ng juftlikda ikki usulda yechish	Tahlil, sintez
3. Yangi bilimni shakllantirish	10 daq.	“Galereya sayri” va jamoaviy muhokama	Usullarni taqqoslash, (a + b) · c = a · c + b · c qoidasini ta’riflash	Taqqoslash, umumlashtirish
4. Mustahkamlash	10 daq.	“Har doim – ba’zan – hech qachon”	Mulohazalarni guruhda baholash, qarshi misol keltirish	Deduktiv mulohaza
5. Mustaqil ish	7 daq.	Tabaqalashtirilgan topshiriqlar	9 · 6 + 1 · 6 va 5 · 7 + 5 · 3 ni qulay usulda hisoblash va asoslash	Qo‘llash, asoslash
6. Refleksiya	5 daq.	“Chiqish chiptasi”	“Bugun men ... ni tushundim, chunki ...”	Metakognitiv nazorat

Interfaol metodlarning samaradorligi

Interfaol metodlar samaradorligiga oid xalqaro tadqiqotlar natijalari (5-jadval).

5-jadval: **Interfaol metodlar samaradorligiga oid xalqaro tadqiqotlar natijalari**

Manba	Tadqiqot turi va hajmi	Asosiy natija
Mercer va Sams (2006) [13]	Kvazi-eksperiment, 9–10 yoshli o‘quvchilar, 14 ta sinf	Muloqot qoidalari o‘rgatilgan sinflarda natijalar sezilarli yuqori; d = 0,59
Talkhan va b. (2025) [21]	Meta-tahlil, 30 ta tadqiqot, boshlang‘ich sinf matematikasi	g = 0,71 (95% IO: 0,60–0,82); “Arra” va STAD modellarida samara yuqoriroq
Güngör va b. (2026) [11]	Ikkinchi tartibli meta-tahlil (15 ta meta-tahlil)	Umumiy samara 0,71; kvazi-eksperimentlarda 1,11, to‘liq eksperimentlarda ahamiyatli samara yo‘q
Sinha va Kapur (2021) [19]	Meta-tahlil, 53 ta tadqiqot	“Avval masala” yondashuvi: g = 0,36; 2–5-sinflarda esa samara “avval tushuntirish” foydasiga
Education Endowment Foundation [10]	212 va 355 ta tadqiqot sintezi	Hamkorlikda o‘qitish +5 oy, metakognitiv strategiyalar +8 oy qo‘shimcha o‘sish beradi

Tuzilmalashtirilgan hamkorlikdagi ta’lim boshlang‘ich sinf matematikasida o‘rtachadan yuqori samara beradi, biroq tadqiqotlar o‘rtasidagi tafovut katta ($I^2 \approx 81\%$) [21]: samara metod nomiga emas, uni tashkil etish sifatiga – aniq tuzilma va puxta ishlab chiqilgan topshiriqqa bog‘liq [10; 21].

Muhokama: samaradorlik shartlari va cheklovlar

Tahlil interfaol metodlar mantiqiy fikrlashni o‘z-o‘zidan emas, balki quyidagi shartlarda rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Birinchidan, **kognitiv talab.** “Kim chaqqon?” kabi musobaqalar hisoblash tezligini, “Qaysi biri ortiqcha?” esa asoslashni mashq qildiradi; o‘qituvchi javob va xatolarni oldindan ko‘ra bilib, muhokamani rejalashtiradi [20].

Ikkinchidan, **tuzilma.** Guruhga shunchaki birlashtirish natija bermaydi: rollar (“hisobchi”, “tekshiruvchi”, “ma’ruzachi”) va individual javobgarlikka ega tuzilmali modellar (“Arra”, STAD) samaraliroq [10; 21].

Uchinchidan, **o‘qituvchi rahbarligi.** 2–5-sinflarda “avval tushuntirish” yondashuvi “avval masala”dan ustun kelgan [19]: ochiq topshiriqlar qisqa, ko‘rgazmali qo‘llab-quvvatlangan va aniq umumlashtirish bilan yakunlanishi kerak.

To‘rtinchidan, **muloqot madaniyati.** Muloqot qoidalarini maqsadli o‘rgatish matematik natijalarni sezilarli oshirgan (d = 0,59) [13].

Beshinchidan, **ehtiyotkor talqin.** Kvazi-eksperimentlarda samara o‘lchami (1,11) to‘liq eksperimental dizaynlardagidan ancha yuqori [11], shu bois guruhlar tengligi, samara o‘lchami va kechiktirilgan nazorat ta’minlanishi zarur.

Tadqiqotning cheklovlari: tanlanma hajmi, tajriba-sinov davomiyligi, diagnostik vositaning ishonchliligi (Kronbax alfa) va validligi keyingi tadqiqotlarda aniqlashtiriladi.

Metodik tavsiyalar

Talabalar uchun: dars ishlanmasida mantiqiy maqsadni ham belgilash, yopiq topshiriqlarni ochiq topshiriqqa aylantirish (“Hisobla” → “Hisoblamasdan taqqosla va asosla”), metodni 7–10 daqiqalik fragmentda sinab, videoyozuv asosida tahlil qilish.

O‘qituvchilar uchun: har darsda 5–10 daqiqalik “mantiqiy boshlanma”, rollarga asoslangan guruh ishi, xatoli yechimlarni “Kim haq?” shaklida muhokama qilish, asoslashni 0–2 ballik mezon bilan baholash.

O‘quvchilar uchun: G. Pólya bosqichlari [17] asosidagi “Mulohaza kartochkasi”: Tushun → Model tuz → Reja tuz → Bajar → Tekshir → Asosla (“ chunki ”) → Boshqa usul bormi?

XULOSA VA TAKLIFLAR

Interfaol metodlar muayyan mantiqiy amalni nishonga olganda va “javob + asoslash” talabi bilan qo‘llanilgandagina mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Moslik tizimi (11 ta metod) va to‘rt bosqichli dars sikli buning metodik mexanizmini belgilaydi, topshiriqlar esa darslik mazmunini qo‘shimcha vaqt sarflamay mulohaza yuritishga yo‘naltirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Xalqaro meta-tahlillar samaradorlikni tasdiqlaydi (g = 0,71; d = 0,59), biroq samara tuzilma, topshiriqning kognitiv talabi va o‘qituvchi rahbarligiga bog‘liq.

0–2 ballik mezon va diagnostik vosita o‘quvchilar mantiqiy fikrlashi dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Metodika fanlariga mikroo‘qitish mashqlarini, malaka oshirish kurslariga muhokamani boshqarish modullarini kiritish, darsliklarni “asosla”, “taqqosla”, “qarshi misol keltir” topshiriqlari bilan boyitish tavsiya etiladi; keyingi tadqiqotlar metodlar ta’sirini tasodifiy taqsimotli uzoq muddatli dizaynlarda baholashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son1 Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son2 Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020-yildagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son3 Qarori.
4. Habibullayeva, Sh. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish. Modern Science and Research, 3(6), 1243–1247.
5. Jumayev, M. E., & Tadjiyeva, Z. G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi: darslik. Toshkent: Fan va texnologiya. 312 b.
6. Xudoyberdiyeva, U. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishda psixologik yondashuv. Journal of Universal Science Research, 2(11), 235–239.
7. Истомина-Кастровская, Н. Б., Иванова, И. Ю., Редько, З. Б. [и др.] (2023). Методика обучения математике в начальной школе: учебник (2-е изд., перераб. и доп.). Москва: ИНФРА-М. 301 с.
8. Chapin, S. H., O‘Connor, C., & Anderson, N. C. Talk moves: A teacher’s guide for using classroom discussions in math, grades K–6 (3rd ed.). Portsmouth, NH: Heinemann.
9. Danielson, C. Which one doesn’t belong? A shapes book: Teacher’s guide. Portland, ME: Stenhouse.
10. Education Endowment Foundation. (n.d.). Teaching and Learning Toolkit: Collaborative learning approaches; Metacognition and self-regulation.
11. Güngör, F., Altunbaşak, İ., Aydın, A. T., Kaya, M., & Erdem, C. (2026). A second-order meta-analysis on the effects of cooperative learning on students’ academic achievement, higher-order thinking, and affective behaviors. Current Psychology, 45(6), 552.
12. Jeannotte, D., & Kieran, C. A conceptual model of mathematical reasoning for school mathematics. Educational Studies in Mathematics, 96(1), 1–16.
13. Mercer, N., & Sams, C. Teaching children how to use language to solve maths problems. Language and Education, 20(6), 507–528.
14. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., & von Davier, M. (Eds.). (2021). TIMSS 2023 assessment frameworks. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center; IEA.
15. Nunes, T., Bryant, P., Evans, D., Bell, D., Gardner, S., Gardner, A., & Carraher, J. (2007). The contribution of logical reasoning to the learning of mathematics in primary school. British Journal of Developmental Psychology, 25(1), 147–166.
16. OECD. PISA 2022 results (Volume I): The state of learning and equity in education. Paris: OECD Publishing.
17. Pólya, G. How to solve it: A new aspect of mathematical method (with a foreword by J. H. Conway). Princeton, NJ: Princeton University Press. (Birinchi nashri 1945-yil.)
18. Rittle-Johnson, B., Star, J. R., & Durkin, K. (2020). How can cognitive-science research help improve education? The case of comparing multiple strategies to improve mathematics learning and teaching. Current Directions in Psychological Science, 29(6), 599–609.
19. Sinha, T., & Kapur, M. When problem solving followed by instruction works: Evidence for productive failure. Review of Educational Research, 91(5), 761–798.
20. Smith, M. S., & Stein, M. K. (2018). 5 practices for orchestrating productive mathematics discussions (2nd ed.). Reston, VA: NCTM.
21. von Davier, M., Kennedy, A., Reynolds, K., Fishbein, B., Khorramdel, L., Aldrich, C., Bookbinder, A., Bezirhan, U., & Yin, L. (2024). TIMSS 2023 international results in mathematics and science. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
22. Vygotsky, L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
23. Jalilov, K. (2026, 31-avgust). Maktablar uchun qayta ko‘rib chiqilgan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarining yangiligi nimada? 1-qism. Gazeta.uz.

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/uz/docs/-4312785
3 https://lex.uz/docs/-4807552

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.